

## O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA QOMUSIY LUG'ATLARNING O'RNI

Annaqulova Shoxista,

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi*DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925623>

**Annatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek leksikografiyasida qomusiy lug'atlarning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi hamda O'zbek sovet ensiklopediyasi kabi yirik ensiklopedik nashrlarning konseptual asoslari, ularning terminologik tizimni standartlashtirish, ilmiy bilimlarni ommalashtirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy raqamli leksikografiya sharoitida qomusiy lug'atlarning transformatsiya jarayonlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** leksikografiya, qomusiy lug'at, ensiklopediya, terminologiya, ilmiy diskurs, raqamli leksikografiya.

**Аннотация.** В данной статье анализируются формирование, этапы развития и научно-практическое значение энциклопедических словарей в узбекской лексикографии. В частности, освещаются концептуальные основы таких крупных энциклопедических изданий, как Национальная энциклопедия Узбекистана и Узбекская советская энциклопедия, а также их роль в стандартизации терминологической системы и популяризации научных знаний. Кроме того, на научно-теоретическом уровне анализируются процессы трансформации энциклопедических словарей в условиях современной цифровой лексикографии.

**Ключевые слова:** лексикография, словарь, энциклопедия, терминология, научный дискурс, цифровая лексикография.

**Abstract.** This article analyzes the formation, stages of development and scientific and practical significance of encyclopedic dictionaries in Uzbek lexicography. In particular, the conceptual foundations of such large encyclopedic publications as the National Encyclopedia of Uzbekistan and the Uzbek Soviet Encyclopedia are highlighted, as well as their role in standardizing the terminological system and popularizing scientific knowledge. Also, the transformation processes of encyclopedic dictionaries in the conditions of modern digital lexicography are analyzed on a scientific and theoretical basis.

**Keywords:** lexicography, dictionary, encyclopedia, terminology, scientific discourse, digital lexicography.

**Kirish.** Til va jamiyat, til va madaniyat, til va ong bir-birini doimiy taqazo qiladigan, biri birisiz mukammal bo'lmaydigan, birlashgandagina ulkan qudratga ega bo'ladigan tushunchalardir. Tilning bor ko'rki-tarovati, boyligi, quvvati, tarixi, bugungi holati ham lug'atlarda namoyon bo'ladi. Lug'at faqat "biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda (odatda, alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib beradigan kitob" yoki "tildagi barcha so'zlar majmuyi" [1] gina emas, hozirni o'tmish va kelajak bilan bog'laydigan ko'prikdir. Ular faqatgina til leksikasining ma'lum holatinigina (imlosi, izohi, tarjimasi, ...) yoritmaydi, balki o'zida til egasi bo'lgan millatning har bir davrdagi ijtimoiy munosabatlarini, madaniyatini, tafakkurini muhrlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Leksikografik manbalarda lug'atlar so'zni tavsiflash xususiyatiga ko'ra, ikki turga: ensiklopedik lug'at va filologik lug'atlarga bo'linadi. Tilshunos olim A.Madvaliyev ensiklopedik lug'at so'zlarning o'zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlashi, tushuntirishini lingvistik

lugʻatlarning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan soʻzning maʼnolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iboratligini qayd qilib, lingvistik (filologik) lugʻatlarning oʻn sakkizta turini keltiradi. “Lugʻat turlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Yuqorida, asosan, oʻzbek lugʻatchiligida mavjud boʻlgan yoki bevosita oʻzbek tiliga, oʻzbek lugʻatchiligiga aloqador boʻlgan va aksariyati amalda foydalanib kelinayotgan lugʻat turlarigina koʻrsatildi” [2] deya yozadi. Yuqorida olim oʻn sakkizta lugʻatning tarkibiga kiritmagan filologik lugʻat turlaridan biri bu yangi soʻzlar lugʻatidir. Bunday lugʻatlar tilimizda hali tuzilmagan, faqat ayrim neologiya va neografiya tilshunoslikning mustaqil yoʻnalishi sifatida shakllangan, neologizmlar keng oʻrganilgan va oʻrganilayotgan tillardagina mavjud. Ammo tilimiz taraqqiyotida ham neologizmlarning oʻrni yildan yilga ortib borayotganligi ularning leksikografik talqiniga dolzarb til muammosi sifatida qarashga undamoqda. Ularni lugʻatlarda qay tarzda aks ettirish, semantik xususiyatlarini ifodalash, normativ maqomini belgilash, zarur holatlarda chet tillardan oʻzlashganlarining oʻzbek tiliga mos ekvivalentlarini aniqlash – leksikografiyaning muhim masalalaridandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Leksikografiya – tilshunoslikning lugʻat tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shugʻullanuvchi sohasi boʻlib, u til boyligini tizimlashtirish, normativlashtirish va ommalashtirish vazifasini bajaradi. Oʻzbek tilshunosligida lugʻatchilik anʼanalari qadimiy ildizlarga ega boʻlsa-da, qomusiy lugʻatlar, yaʼni ensiklopedik xarakterdagi universal yoki sohaviy nashrlar XX asrda tizimli shakllana boshladi. Qomusiy lugʻatlar til birliklarining izohini berish bilan cheklanmay, tushuncha va reallikni ilmiy asosda sharhlaydi. Shu bois ular nafaqat lingvistik, balki epistemologik va madaniy fenomen sifatida ham muhimdir. Qomusiy lugʻatlar insoniyat tafakkuri va ilmiy merosining eng muhim manbalaridan biridir. Ular maʼlum bir soha yoki umumiy bilimlar majmuasini tizimli ravishda jamlab, oʻquvchi va tadqiqotchilarga ishonchli maʼlumot taqdim etadi. Qomusiy lugʻatlar nafaqat til boyligini koʻrsatadi, balki jamiyatning tarixiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotini ham aks ettiradi.

**Tahlillar va natijalar.** Qomusiy lugʻatlar millatning madaniy merosini saqlash va kelajak avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ularda xalqning urf-odatlarini, tarixiy shaxslari, geografik nomlari va ilmiy yutuqlari haqida maʼlumotlar jamlanadi. Bu esa milliy oʻzlikni anglash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Internet asrida maʼlumotlar koʻpligi muammo tugʻdirayotgan bir paytda, qomusiy lugʻatlar tekshirilgan va tartibga solingan axborot manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular mutaxassislar tomonidan tuziladi va ilmiy mezonlarga asoslanadi. Shu sababli qomusiy lugʻatlardagi maʼlumotlar ishonchli va aniq boʻladi. Qomusiy lugʻat (ensiklopediya) – bu muayyan fan sohalari, tarixiy voqealar, shaxslar, geografik obyektlar va ijtimoiy hodisalar haqida tizimli, ilmiy asoslangan maʼlumot beruvchi nashrdir. Filologik lugʻatlardan farqli ravishda, qomusiy lugʻatlar soʻzning lingvistik xususiyatini emas, balki u ifodalagan obyekt yoki tushunchani tavsiflaydi.

Nazariy jihatdan qomusiy lug‘atlar:

1. Kognitiv funksiyani bajaradi – bilimni tizimlashtiradi;
2. Normativ funksiyani amalga oshiradi – termin va atamalarning yagona talqinini belgilaydi;
3. Madaniy-identifikatsion vazifani bajaradi – milliy qadriyat va tarixni konseptualashtiradi.

Qomusiy lug‘atlar mazmuni va qamrov doirasiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi.

Umumiy qomusiy lug‘atlar. Bunday lug‘atlar turli sohalarga oid keng qamrovli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ularda tarix, geografiya, fan, texnika, adabiyot, san’at va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar yoritiladi. Masalan: Encyclopædia Britannica, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi shunday lug‘atlar hisoblanadi.

Maxsus qomusiy lug‘atlar. Ma’lum bir fan yoki yo‘nalishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Masalan, tibbiyot, huquq, adabiyot, texnika yoki iqtisodiyot ensiklopediyalari.

O‘zbek leksikografiyasida qomusiy lug‘atlarning shakllanish bosqichlari quyidagicha yuz bergan.

1. Sovet davri ensiklopedik an‘analari.

O‘zbek tilida ilk yirik ensiklopedik loyiha sifatida O‘zbek sovet ensiklopediyasi alohida o‘rin tutadi. 14 jilddan iborat bu qomusiy lug‘at 1971-yildan 1980-yilgacha bo‘lgan davrda chop qilingan. Uning birinchi bosh muharriri akademik I.M.Mo‘minov bo‘lib, 10-jilddan akademik K.A.Zufarov bu vazifani bajargan. Unda jami 40000 dan ortiq maqola berilgan. O‘zSE maqolalarining ilmiy-nazariy va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishi markscha-lenincha mafkura bilan belgilangan. Ushbu ko‘p jildli nashr o‘z davrining mafkuraviy talablari asosida yaratilgan bo‘lsa-da, unda fan, texnika, adabiyot va san’at sohasiga oid keng qamrovli ma’lumotlar jamlangan [3].

2. Mustaqillik davri va milliy konsepsiya.

Mustaqillikdan so‘ng qomusiy lug‘atlar mazmun-mohiyat jihatidan tubdan yangilandi. Bu jarayonning yorqin namunasi – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” hisoblanadi. Ushbu ensiklopediya milliy tarix, davlatchilik, madaniyat va ilm-fan yutuqlarini yangi metodologik asosda talqin etdi. 1997-yil 20-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “„O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyotini tashkil etish to‘g‘risida” qaror qabul qilib, nashriyot zimmasiga 12 jildli „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ni tayyorlash va nashr etishni topshirdi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda, shuningdek, „Toshkent“ ensiklopediyasi, bir jildli Bolalar ensiklopediyasi, Xotin-qizlar ensiklopediyasi, „Islom“ ensiklopediyasi va ba’zi fan tarmoqlaridan soha ensiklopediyalari nashr etildi, etilmoqda.

Milliy ensiklopediyaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Mustaqil davlat mafkurasiga mos ilmiy kontent yaratildi;

O‘zbek tilidagi ilmiy terminlar yagona me‘yorga solindi;

Tarixiy shaxslar va voqealarga milliy nuqtayi nazardan baho berildi.

### Qomusiy lug‘atlarning ilmiy va ijtimoiy ahamiyati

1. Terminologik tizimni shakllantirish. Qomusiy lug‘atlar turli fan sohalaridagi terminlarni standartlashtirish orqali ilmiy muloqotni yengillashtiradi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va texnika sohasida yagona terminologik baza yaratish jarayonida ensiklopediyalar muhim manba vazifasini bajaradi.

2. Ilmiy diskursni rivojlantirish. Ensiklopedik maqolalar ilmiy uslub me‘yorlarini belgilaydi. Ular aniq, ixcham va mantiqan izchil bayon uslubi bilan ajralib turadi. Bu jihat ilmiy maqola yozish madaniyatiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Madaniy-ma‘rifiy funksiya. Qomusiy lug‘atlar keng jamoatchilik uchun ishonchli ma‘lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ular milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

XXI asrda raqamli texnologiyalar qomusiy lug‘atlarning shakl va mazmuniga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Elektron ensiklopediyalar:

tezkor yangilanish imkoniyatiga ega;

multimediya komponentlarini o‘z ichiga oladi;

interaktiv qidiruv tizimi bilan ta‘minlanadi.

O‘zbek leksikografiyasida ham qomusiy lug‘atlarning elektron variantlarini yaratish, ma‘lumotlar bazasini integratsiyalash va korpus lingvistikasi bilan bog‘lash dolzarb vazifalardan biridir.

Muammolar sifatida quyidagilarni bayon qilishimiz mumkin.

1. Qomusiy lug‘atlarni muntazam yangilab borish mexanizmi yetarlicha takomillashmagan.
2. Soha mutaxassislarining hamkorlik platformalari cheklangan.
3. Raqamli formatda ochiq ilmiy platformalar yaratish zarurati mavjud.

**Xulosa.** O‘zbek leksikografiyasida qomusiy lug‘atlar ilmiy tafakkur, terminologik tizim va milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat ma‘lumot manbai, balki konseptual bilim tizimini yaratish vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Qomusiy lug‘atlar o‘zbek leksikografiyasining strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022-yil, 3-jild. – 844 b.
2. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbek\\_sovet\\_ensiklopediyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbek_sovet_ensiklopediyasi)